



## BOYAZID VA TEMUR: IKKI IMPERATOR TO‘QNASHUVI VA TARIXIY BURILISH

**Jahongirova Munira Muroddin qizi**

*Nizomiy nomidagi O‘zMPU*

*Tarix yo‘nalishi 3-kurs talabasi*


*Ilmiy rahbar: PhD, dots. Yakobjanov J.J*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 1402-yilda bo‘lib o‘tgan Ankara jangi – Temur va Usmonli sultoni Boyazid I Yildirim o‘rtasidagi tarixiy to‘qnashuv tahlil qilinadi. Unda ikki imperatorning siyosiy maqsadlari, harbiy strategiyalari va jang natijasining tarixiy ahamiyati yoritiladi. Maqola orqali o‘quvchi o‘sha davr geosiyosiy muhitini chuqurroq tushunib, bu jang mintaqaviy va global tarixga qanday ta‘sir ko‘rsatganini bilib oladi. XIV asr oxirida sodir bo‘lgan Ankara jangining sabablari, rivoji va oqibatlarini yoritadi. Unda Amir Temur va Sulton Boyazidning siyosiy ambitsiyalari, harbiy salohiyati va bu jang mintaqadagi kuchlar muvozanatiga qanday ta‘sir qilgani tahlil etiladi. Maqola tarixiy faktlar asosida ikki buyuk shaxsning to‘qnashuvi orqali Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari orasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi.

**Kalit so‘zlar:** Temur, Boyazid, Ankara jangi, Usmonli imperiyasi, Temuriylar davlati, XIV asr, harbiy strategiya, tarixiy to‘qnashuv, siyosiy raqobat, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq tarixi, 1402, imperatorlar to‘qnashuvi, o‘rta asrlar siyosati, geosiyosiy muvozanat, tarixiy burilish nuqtasi, qudratli sarkardalar, Usmonlilar tarixi, Temuriylar saltanati.

**Аннотация:** в этой статье анализируется битва при Анкаре в 1402 году- историческое столкновение между Тимуром и османским султаном Баязидом I Йылдырым. В нем освещаются политические цели, военные стратегии двух императоров и историческое значение результата битвы. Благодаря статье читатель сможет глубже понять геополитическую среду того времени и узнать, как эта битва повлияла на региональную и глобальную историю. Освещает причины, развитие и последствия битвы при Анкаре, произошедшей в конце четырнадцатого века. В нем анализируются политические амбиции эмира Тимура и султана Баязида, военный потенциал и то, как эта битва повлияла на баланс сил в регионе. Статья раскрывает сложные отношения между Восточной и западной цивилизациями через столкновение двух великих личностей на основе исторических фактов.

**Ключевые слова:** Тимур, Баязид, битва при Анкаре, Османская империя, государство Тимуридов, четырнадцатый век, военная стратегия, исторический конфликт, политическое соперничество, история Центральной Азии, Ближнего Востока, 1402 год, конфликт императоров, средневековая политика, геополитический баланс, исторический поворотный момент, могущественные полководцы, османская история, царство Тимуридов.



**Annotation:** this article analyzes the historical conflict between the Battle of Ankara in 1402-Timur and the Ottoman Sultan Boyazid I Yıldırım. It highlights the political goals, military strategies of the two emperors and the historical significance of the outcome of the battle. Through the article, the reader will gain a deeper understanding of the geopolitical environment of the time and learn how the battle has affected regional and global history. Illuminates the causes, development and consequences of the Battle of Ankara, which took place at the end of the XIV century. It analyzes the political ambitions, military potential of Amir Temur and Sultan Boyazid and how this battle affected the balance of power in the region. The article reveals the complex relationship between Eastern and Western civilizations through the clash of two great figures based on historical facts.

**Keywords:** Temur, Boyazid, Battle of Ankara, Ottoman Empire, Timurid state, 14th century, military strategy, historical conflict, political rivalry, Central Asia, Middle Eastern history, 1402, clash of emperors, medieval politics, geopolitical balance, historical turning point, powerful warlords, Ottoman history, Timurid Kingdom.

<sup>33</sup>BOYAZID I Yildirim (1359-1403) - usmonlilar sulolasiga mansub Turkiya sultoni (1389—1402), sulton Murod I (Usmonlilar imperiyasi) (1359—1389)ning to'ng'ich o'g'li, sulton O'rxon I (1326—1359)ning nabirasi. Otasi Kosovo jangida halok bo'lgach, 30 yoshida taxtga o'tirgan. Boyazid ota-bobolari siyosatini davom ettirib, tez orada Dunay bo'yi davlatlarini o'ziga bo'ysundirdi. So'ng, Vizantiya imperatori Ioann bilan uning o'g'li Andronik o'rtasidagi ixtilofdan foydalanib, Andronikka harbiy yordam ko'rsatdida, uni Vizantiya taxtiga o'tqazdi, Ioanni esa zindonga tashladi. Ammo, ikki yildan so'ng (1394) Andronikni taxtdan tushirib, Ioanni yana taxtiga o'tqazib qo'ydi. Shunday qilib, Boyazid Vizantiyani butunlay o'ziga qaram qilib oldi. Keyin Boyazid 1395—1396-yillarda Bolgariya, Makedoniya, Fessaliyani fath etdi, Gretsiyaga bostirib kirib Argos shahrni butunlay vayron qildi, Bolqon arxipelagidagi orollarga chopqun qilib, Moreya va Vengriyaga tahdid sola boshladi.

Shunda Bogemiya va Vengriya qiroli Sigizmund I (1368—1437) turli mamlakatlardan katta qo'shin to'plab Boyazidga qarshi yurish qildi, ammo 1396-yil 28-sentabrda Nikopol shahri yonida (Dunay bo'yida)gi jangda tor-mor keltirildi (qarang Salib yurishlari). Jangdan so'ng, Boyazid asir olingan 3 ming kishini qatl ettirdi.<sup>34</sup> Boyazid bu yirik g'alaba tufayli Bosniya, Vengriyani ham qo'lga kiritib, Bolqon yarim orolida o'z mavqeini mustahkamlab oldi. Boyazid 30 yoshida taxtga o'tirgan. Vizantiyani o'ziga qaram qilgan. Bolgariya, Makedoniya,<sup>35</sup> Fessaliyani fatx etdi. Bosniya va Vengriyani qo'lga kiritgan. Bolqon yarim orolida o'z mavqeini mustahkamlab oladi.

<sup>33</sup> Barthold, V.V. Turkistonning Mongollar davrigacha va undan keyingi tarixi. Toshkent: Fan, 1993. 45-50-betlar.

<sup>34</sup> Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1992. 34-40-betlar.

<sup>35</sup> Fessaliya (yoki Fessaliya vodiysi) — qadimgi Yunonistondagi muhim tarixiy-geografik hudud bo'lib, hozirgi Gretsiyaning shimoliy qismida joylashgan. Aleksandr Makedonskiy davrida ham muhim strategik mintaqaga sifatida saqlangan. Yunoniston miflarida esa bu yarimi odam yarimi ota sifatida eslanadi.

<sup>36</sup> Amir Temur g'arbiy yurishlari chog'ida qoraqayunli Turkman qabilasi amiri Qora Muhammad turkmaning o'g'li Qora Yusufning, hajga boruvchilar va savdo karvonlarini talab, qaroqchilikni kasb etganini bilgach, uni qattiq taqib ostiga oladi. Qora Yusuf Amir Temurga qarshi Iroq hokimi Ahmad Jaloyir bilan ittifoq tuzadi, biroq ular, sohibqiron hujumiga dosh berolmay, Rum sultoni Bozayid I Yildirimdan panoizlaydi. Shu barobarida kayfu-safoga berilganidan xalq noroziligiga sabab bo'layotgan Sulton Bozayid I Yildirim qaroqchilarni o'z qanoti ostiga oladi. Bu albatta, Sohibqiron Amir Temurning g'azabini keltiradi.

Biroq u Sultonga qarshi jang qilishga shoshilmaydi chunki, Sulton Boyazidning xristianlarga qarshi jang olib borayotganidan xabardor edi. Amir Temurning Boyazid I Yildirimga yozgan ilk maktubi: Ey Rum eli diyorining podshohi, Yildirim Bozayid! Avvalo, shuni uqib olki. Biz o'z kuch-qudrati va iqtidori ila insoniyatning katta bir b'qismini o'zimizga tobe qilgan hukmdorlarmiz. Bunday misli ko'rilmagan ishni o'z jiddu-jahdimiz bilan qildik, sen kabi iqtidorni (hokimiyatni) ota bobolarimizdan meros qilib olmadik. Yahshilikcha Qora Yusuf bilan Ahmad Jaloyirni yurtindan surgun qilib, chiqarib yubor. Bizga va buyruqlarimiga bo'ysunmagan hukmdorlarning oqibatlari haqida eshitgan bo'lsang kerak. Senga ham ularning boshiga kelgan musibatlar kelishidan ehtiyot bo'li!''

Yildirim Boyazidning Amir Temurga ilk javobi: Sen zolim kofirlarning eng ashaddiysisan. Maktubingda bizni qo'rqitib, hiyla bilan chuv tushurmoqchi bo'libsan. Usmonli Sultonlarini Ajamlarning podshohlariga o'xshata ko'rma. Usmonli askarlari Qipchoq o'lkasidagi Tatarlar kabi nimjon, hindlar kabi bo'shang, ahmoq va yalqov emasdir. Usmonli askarlari Iroq va Huroson askarlariga o'xshagan hamiyatsiz va parishon emas, balki nihoyatda g'ururli askarlar shuningdek, sen usmonli askarlarini Shom va Halab (Mamluk) askarlariga ham o'xshatma.

Sulton Boyazid Amir Temurga tobe Erzinjon hududiga bostirib kiradi. Bundan g'azablangan Temur Boyazid yoniga elchi yuboradi va uzur so'rashni talab qiladi. Ammo Boyazid Temurga haqoratli javob qaytaradi.<sup>37</sup> Sohibqiron Usmonlilar ustiga yurish qiladi. Kichik Osiyo hududlariga bostirib kirdi. Ilk jang 1399-yilda Sivas shahri yonida bo'lib o'tadi. Jangda Boyazid o'g'li Sulaymon, Temur qo'shini bo'linmalari hilan jang qildi. Sivas jabt etildi. Boyazid Sivasdan 150km G'arbda otliq qo'shinlari bilan o'rmon va tog' yonbag'irlarida Temur qo'shinini kutb turdi. Sohibqiron o'z qoshinini Qizil irmoq daryosining o'ng sohilidan aylanb o'tib, Boyazid qo'shining orqa tomonidan keladi. Anqarani orqa tomonidan qamal qiladi. Usmonlilar ortga qaytishga va o'zlari uchun noqulay bo'lgan sharoitda jang qilishga majbur bo'lishadi. Jang 1402-yil Iyun oyining tongida<sup>38</sup> Stella tog'I yonida Sulton Boyazid hujumi bilan boshlandi.

Har birinig 200mingga yaqin jangchilari bo'lib, Usmonlilar Temur qo'shining o'ng

<sup>36</sup> Lamb, Harold. Tamerlane: Sword of Islam, Conqueror of the World. Garden City Publishing, 1928. 20-30 betlar.

<sup>37</sup> Inalcik, Halil. The Ottoman Empire: The Classical Age 1300-1600. London: Phoenix Press, 2001. 50-60 betlar.

<sup>38</sup> Qadim zamonlarda "stela" (lotincha stella — yulduz emas, stela — tosh haykal yoki yodgorlik) deb, ko'pincha yozuv tushirilgan tosh yodgorliklar atalgan. Gretsiya yoki Italiyada "Stella" nomli qishloq va tog' bo'lishi mumkin, ammo ular tarixiy jihatdan ko'p hollarda lokal ahamiyatga ega bo'lgan.

qanotidan hujum uyishtirib uning orqa tarafiga o`tdi. Asosiy kuchlarini zahira qismidan ajratmoqchi bo`ldi. Temurning otliq bo`linmasi u hujumni qaytardi. Temurning o`rta va chap qanot qismlari Sulton qo`shinining ikkala tomonini tor-mor qildi. Temurning o`ng qanot qismi Usmonlilarni zahira qismidan ajratib qoy`di. Boyazidning Sara Yanicharlari yanchib tashlandi, qolgan askarlari jangni tashlab qocha boshladi. Boyazidning uch o`g`li ham jangni tashlab qochdi. Boyazidga sarkardalar jangda yutkazishganini va qochish kerak ekanligini uqtirishdi. Sulton Boyazid yarim tungacha dushmani bilan ayovsiz jang olib bordi. Yarim tunda uni oti yiqiladi va u Temur jangchilari tomonidan asirga olindi. Usmonli turklar davlati to`liq Amir Temur ixtiyoriga o`tdi. Boyazid qo`shining 3/2 qismi jang maydonida yo`q qilindi. Sohibqiron qo`shining 8/1 qismini yo`qotdi. Asirlikda Boyazid ko`p otmay olamdan o`tdi. Amir Temur Boyazid saltanatini uning o`g`illari o`rtasida bo`lib berib, ortga qaytdi. Asirlikdagi Boyazidni Temur oldiga olib kelishganda Temur Boyazidga qarab: Bu dunyo Alloh uchun hech qanday ahamiyatga ega emas ekan. Zero, podshohlikni senday ko`r va menday cho`loqqa bergan.

<sup>39</sup> Tarixda Anqara jangi nomini olgan ikki buyuk Turkiy musulmon podshosining to`qnashuvidan oldin bir necha yillar Amir Temur va Boyazid Yildirim o`rtasida tarixiy va siyosiy yozishmalar bo`lib o`tadi. Amir Temur Boyazidga bir necha bora sulh taklif qiladi. Boyazid atrofidagi fitnalar sabab, sulhga kelishilmaydi. O`rtalaridagi maktub almashmalarida Temur har doim Boyazidga qardoshim, dindoshim deb maktublar yuborgan. Yildirim esa maktublarida qutirgan ko`ppak, qutirgan ot go`shti yegan Varvar deb haqoratovus javob yozardi. 1396-yilda Boyazid Yildirim Istanbulni zabt etmoqchi edi. U 13 davlat qo`shini bilan Balgaryada jang qildi va hammasini yengdi. Bu orada Temur unga maktub yuborarkan: "Ey Sulton Boyazid sen bilan jangimiz aniq bir kun albat uchrashamiz va albatta kuchlarimizni sinaymiz. Sen islom nomini, islom bayrog`ini G`arbga qarata kengaytirishga urinmoqdasan va kofirlar bilan jang qilmoqdasan, senga hujum qilmayman kofirlar ustidan g`alabang uchun duoda bo`laman, agar istasang g`alabang uchun 20 ming askarimni senga jo`nataman. Yordam bo`lsin, mening askarlarim sen bilan jang qilsin. Bu oddiy jang emas, bu islomning jangi. Ga`yri din va kofirlarni yeng, g`alabangda mening ham yordamim bo`lsin" deb yozadi. Ammo bunga Yildirim javoban: Menga yordamga harakat qilma, qo`rqsang qo`rqdim deb ayt, qutirgan ko`ppak men ham g`arb bilan, ham sen bilan jang qilishga tayyorman. Istasang ham ular bilan ham sen bilan jang qilaman" deb javob beradi.

<sup>40</sup> Janglarda Yildirim g`alaba qozonadi. Temur unga tabrik maktublari yo`llaydi, bu Amir Temurning buyukligini isbotlaydi. 1402-yilda Chubuk tekkisligida Boyazid va Temur qo`shini uchrashadi. Bu jangda Boyazidga yordamga kelgan Anadoli beklarini Sulton juda qattiq haqorat qiladi. Beklar Usmonli qo`shinidan chiqib Temurga qo`shiladi. Yildirim: Anqara jangida g`alaba qilishim bilan Temurni hayvon qafasiga solib, butun shaharni aylantiraman degan edi. Temurning oldiga Boyazidni keltirishadi va uning so`zlarini

<sup>39</sup> Ziyayev, H. Amir Temur va Temuriylar davri tarixi. Toshkent: O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2001. 80-90 betlar.

<sup>40</sup> Roemer, H. R. "The Successors of Timur." In The Cambridge History of Iran, Volume 6. Cambridge University Press 1986. 60-70 betlar.

eslatishadi. Temur esa: Qarshimda turgan Turk hukmdori. Men turk hukmdoriga bunday qilmayman deydi. Anqaraning Chubuk tekisligidagi jangni fillar hal qilgan va ular sabab jangda g'alaba qozonilgan. Fillar qomondoni Eson buga bo'lgan. Hozirgi paytda Anqara aeroporti shu nom bilan ataladi. Amir Temur 1405-yilda Xitoyga yurishi chog'ida betobligi sabab vafot etadi. Uning qabri bugun Samarqandda, oila azolari bilan yonma-yon joylashgan. Xulosa: Ma'lumki ikki turkiy musulmon podshohlarinig o'zaro kelishmovchiliklari o'sha davrdagi musulmon bo'lmagan dushman mamlakatlarga juda qo'l kelgan. Boyazid Yildirimning Amir Temur bilan kelishmovchiligiga uning atrofidagi siyosiy maslahatchilarining fitnachiligi asosiy sabab bo'lgan deb hisoblayman. Amir Temurning oliy janoblighi va islomiy tarbiyasi jang natija bergandan so'ng ham yaqqol namoyon bo'lgan.

<sup>41</sup> Anqara jangi- Amir Temur va turk sultoni Boyazid I Yildirim o'rtasida 1402-yil 20-iyul kuni Anqara yaqinidagi Chubuk mavzeyida bo'lib o'tgan jang. Jang Amir Temurning g'alabasi bilan yakunlangan va natijada Usmoniylar imperiyasida taxt uchun kurash boshlangan, shuningdek Vizantiya imperiyasi poytaxti Konstantinopol yana 50 yil yashagan. Unda Amir Temurning taxminan 200 ming, Turkiya sultonining 160 ming askari qatnashgan. Ushbu jangning sodir bo'lishiga asosan quyidagi omillar sa-bab bo'lgan: Iroq, Shom, Dashti Qipchoq, Xuroson, Hindiston, Jeta singari mamlakatlarni o'ziga itoat ettirishga muvaffaq bo'lgan Amir Temur o'z saltanatining janubi-g'arbiy hududlariga yaqin joylashgan Bolqon yarim orol va Kichik Osiyoda barpo etilgan qudratli Usmonlilar davlatining kuchayib ketayotganligidan xavotirda edi, chunki G'arbiy Yevropa risarlaridan tashkil topgan katta armiyani tor-mor etgan, Bolqon davlatlarini egallagan usmoniy turklar Amir Temurga taalluqli viloyatlarga ham tahdid sola boshlagan edi.


Tarixning guvohlik berishicha, Amir Temur o'z qo'shini bilan Sharqiy Anadolu sarhadlariga 1386 yil qadam qo'ygan va Arzinjon shahri yaqinida turklarning katta harbiy kuchlarini mag'lub etgan. 1395 yil Sohibqiron bu o'lkalarga ikkinchi bor yurish qiladi, <sup>42</sup>Sivosni qo'lga kiritadi. <sup>43</sup>Amir Temur Anqara jangiga qariyb ikki yildan ortiq tayyorlanadi: 1399 yil Runga yuzlanadi va Boyazid tomonidan fath qilingan Kamoh qal'asini qamal qiladi. Kamoh fath etilgach, ko'p fursat o'tmay Amir Temur Anqarani qamal qiladi. Sohibqironning bu harakati aslida taktik tadbir bo'lib, tajribali sarkardaning asosiy maqsadi Boyazidni asosiy kuchlarini shahar mudofaasiga tashlashga majbur etib, so'ng unga qaqshatqich zarba berish edi. To'qat shahri yonida asosiy harbiy kuchlari bilan turgan Boyazid I Sohibqiron askarlarining Anqarani muhosara qilganligidan xabar topadi va qamaldagilarga ko'mak berishga oshiqadi. Amir Temur Anqara qamalini bekor qiladi va raqibini kutib olish taraddudini ko'radi.

<sup>41</sup> Kafesoglu, Ismail. The Impact of Timur on the Ottoman Empire. Istanbul: Istanbul University Press, 1987. 50-60 betlar.

<sup>42</sup> Sivos — bu Turkiyaning Janubiy-Sharqiy qismida, ayniqsa, Sivas viloyatida joylashgan qadimiy shahar. Amir Temur uni 1400-yillarda istilo qilgan. Sivosning qadimgi ahamiyati, uning o'zining savdo va madaniyat markazi sifatida rivojlanishida edi.

<sup>43</sup> Ismailov, Z. Temur va Usmonli Imperiyasi: Geosiyosiy tahlil. Toshkent: Sharq, 2010. 40-34 betlar.






Qo'shin qismlarini jangohning (Chibukobod degan yerda) qulay yerlariga joylashtiradi. Lashkargoh atrofida xandaklar qazilib, xavfsizlik choralari ko'riladi. Natijada Boyazid I qo'shini o'zi uchun o'ta noqulay shart-sharoitda jangga kirishga majbur bo'ladi. Sulton qo'shini ayniqsa, suv tanqisligi tufayli vujudga kel-gan tashnalikdan qattiq azob chekadi. Sohibqiron qo'shini o'zining an'ana-viy jangovar tartibi – yasodda harakat qiladi. Qo'shinning qirq qismdan tashkil topgan markazi – qo'liga Amir Te-mur bevosita rahbarlik qiladi. So'l qo'l – juvang'arga Shohrux mirzo va Xalil Sulton mirzo, juvang'ar hiravuli – ilg'origa Sulton Husayn mirzo, o'ng qo'l – barang'arga Mironshoh mirzo, barang'ar hiravuliga Abu Bakr mirzo yetakchilik qiladi. Markaz – qo'lining o'ng tarafida Umarshayx mirzoning o'g'li Ahmad mirzo, Toshtemir o'g'lon, Shohsuvor singari sarkardalar joylashadi. Qo'lining chap tomonidan Jalol Islom, Tavakkal qarqara, Ali Muhammad kabi bahodirlar o'rin oladi.

Qo'shinning saflari oldida 30 ta jangovar fil muhorabaga shay qilingan edi. Qarshi tarafda Boyazid I Rum va Farang mamlakatlaridan jamlan-gan cherikiga tartib berib, jangga hozir bo'lib turdi. Qo'shinning o'ng qanoti – barang'arda serb knyazi Stefan (Boyazid Ining qaynisi) 20 ming kishilik farangliklar bilan, chap kanoti – juvangarda esa Musulmon (Sulaymon) Chalabiy (Boyazid Ining o'g'li) Rum lashkari bilan saf tortib turdi. Sulton Boyazid Ining o'zi 572 qo'shin markazida qolib, uch o'g'li Muso, Iso va Mustafolarni chag'davul (qo'shin orti)ga qo'ydi. Jang Mironshoh mir-zo qo'l ostidagi barang'arning dushman juvang'ariga qilgan shiddatli hujumi bilan boshlandi. Boyazid I qismi amir Jahonshoh va amir Qora Usmon rahbarligidagi Geydar tomonidan qilingan hujumga bardosh bera olmay jang maydonini tash-lab qochadi. Boyazid I qo'shini saflarida paydo bo'lgan sarosimalikni payqagan Amir Temur barcha amirzodalar, umarolar, no'yonlarning birgalikda dushmanga hujum qilishlariga hukm qiladi. Shiddatli to'qnashuv uzoq va keskin davom etadi. Nihoyat, Sohibqiron kuchlarining qisuviga bardoshi qolmagan sulton askarlari chekina boshlaydi. Boyazid I qo'mondonligidagi jangchilar so'nggi damgacha qarshilik ko'rsatadilar.

Boyazid I qismi amir Jahonshoh va amir Qora Usmon rahbarligidagi Geydar tomonidan qilingan hujumga bardosh bera olmay jang maydonini tash-lab qochadi. Boyazid I qo'shini saflarida paydo bo'lgan sarosimalikni payqagan Amir Temur barcha amirzodalar, umarolar, no'yonlarning birgalikda dushmanga hujum qilishlariga hukm qiladi. Shiddatli to'qnashuv uzoq va keskin davom etadi. Nihoyat, Sohibqiron kuchlarining qisuviga bardoshi qolmagan sulton askarlari chekina boshlaydi. Boyazid I qo'mondonligidagi jangchilar so'nggi damgacha qarshilik ko'rsatadilar. Yanicharlar bitta qolmay qirib tashlangandan so'ng Boyazid I va uning ikkinchi o'g'li Musoni Amir Temur tomonidan 1388 yil Chig'atoy ulusi xonligiga ko'tarilgan Sulton Mahmudxon ibn Suyurgatmish-xon asir oladi. Sohibqiron Boyazid I qo'shinlarining qolgan-qutgan qismini ta'qib etib, Bursa, Izmirni egallaydi va Marmar dengizi sohillariga chiqadi. Amir Temur tomonidan Boyazid I qo'shinining tor-mor etilishi Usmon-li turk saltanatining ma'lum muddatga zaiflashishiga sabab bo'ldi. Konstantinopolning turklar tasarrufiga kirishini hamda ularning Markaziy va G'arbiy Yevropaga qilmoqchi bo'lgan yurishlarini birmuncha fursatga orqaga surdi.



Jangda ikki tomondan har birining 200 mingdan ortiq jangchilari ishtirok etdi. Usmonlilar Amir Temur qo‘shinining o‘ng qanotidan hujum qildi va uning orqa tarafiga o‘tib, asosiy kuchlarini zaxira qismlardan ajratib qo‘ymoqchi bo‘ldi. Lekin bu hujumni Temurning otliq bo‘linmasi qaytara oldi. Shundan so‘ng Temurning o‘ng qanotdagi qo‘shini to‘xtovsiz qarshi hujumga o‘tib, usmonlilarning asosiy kuchlarini zaxira qismlardan ajratib qo‘ydi va uni qurshab oldi. Temurning o‘rta va chap qanot qismlari ham hujumga o‘tib, sulton qo‘shinining ikkala qanotini tor-mor etdi. Boyazidning markazdagi sara, Yanichar askarlari ham yanchib tashlandi. Sulton Boyazidning omon qolgan askar va sarkardalari har tarafga qarab qocha boshladi. Usmonlilarning uch shaxzodasi ham otalarini tashlab qochishni afzal ko‘rdilar.

Boyazidning sodiq sarkardalari sultonga, jang taqdiri hal bo‘lganini va unga qochishni maslahat berdi. Biroq sulton qochishdan bosh tortdi. Dushman qurshovida qolib ketgan Sulton Boyazid yarim tungacha dushman bilan ayovsiz jang olib bordi. Yarim tunda uning oti yiqildi va Temur jangchilari Boyazid Yildirimni asir oldi. Murosasiz va shafqatsiz kechgan jang usmonli turklarning mag‘lubiyati bilan yakunlandi. Usmonli turklar davlati to‘liq Amir Temur ixtiyoriga o‘tdi. Boyazid qo‘shinining uchdan ikki qismi jang maydonida yo‘q qilindi. Sohibqiron esa qo‘shinining sakkizdan bir qismini yo‘qotdi. Asirlikka chiday olmagan, mag‘rur Boyazid ko‘p o‘tmay vafot etdi. Amir Temur Boyazid saltanatini uning o‘g‘illari o‘rtasida bo‘lib berib, ortga qaytdi.

Anqara uchun bo‘lib o‘tgan ushbu jang o‘z davrining eng yirik ikki qo‘shini to‘qnashuvi edi. Mazkur jang ikki turkiy qavmning to‘qnashuvi edi. Jang natijasiga ko‘ra, Yevropa mamlakatlari kuchayib borayotgan usmonli turklar tahdididan qutulib qoldi va o‘zlarini o‘nglab olish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Boyazid Yildirim mag‘lubiyati usmonlilar tomonidan Konstantinopolning (hozirgi Istanbul) zabt etilishini 50 yilga kechiktirdi.

Xulosa: "Boyazid va Temur: Ikki imperator to‘qnashuvi va tarixiy burilish" — bu sarlavha ikki buyuk sarkarda o‘rtasidagi hal qiluvchi to‘qnashuv, ya‘ni 1402-yildagi Ankara jangi haqida hikoya qiladi. Bu jang nafaqat ikki imperiyaning taqdirini, balki butun mintaqa tarixining yo‘nalishini o‘zgartirgan. Temur (Amir Temur) – Markaziy Osiyodan chiqqan qudratli sarkarda bo‘lib, u o‘z imperiyasini Hindistondan to O‘rta Osiyogacha yoydi. U harbiy strategiya, siyosiy donishmandlik va markazlashgan boshqaruv bilan mashhur.

Boyazid I Yildirim (Chaqqon Yildirim) – Usmonli sultonlaridan biri, kuchli va shiddatli harakatlari bilan tanilgan. Uning maqsadi Usmonli imperiyasini Yevropaga kengaytirish edi. Boyazid va Temur o‘rtasidagi to‘qnashuv – tarixdagi eng muhim burilishlardan biridir. Temurning g‘alabasi nafaqat Usmonlilarni vaqtincha to‘xtatdi, balki butun mintaqa kuchlar muvozanatini o‘zgartirdi. Bu jang orqali Temur o‘zining strategik dahosini isbotladi, Boyazid esa mag‘lubiyatidan so‘ng Usmonli imperiyasining kuchli, lekin hali barqaror emasligini ko‘rsatdi. Ushbu voqea tarixda ikki qudratli imperator taqdirining kesishgan nuqtasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. İnalçık, Halil. The Ottoman Empire: The Classical Age 1300–1600. London: Phoenix Press, 2000. 27- 30-betlar.
2. Shaw, Stanford J., and Ezel Kural Shaw. History of the Ottoman Empire and Modern Turkey. Vol. 1. Cambridge University Press, 1976. 40-67-betlar.
3. Imber, Colin. The Ottoman Empire, 1300–1650: The Structure of Power. Palgrave Macmillan, 2002. 25-30 betlar.
4. Faroqhi, Suraiya. The Ottoman Empire and the World Around It. I.B. Tauris, 2004. 18-20 betlar.
5. Babinger, Franz. Mehmed the Conqueror and His Time. Princeton University Press, 1978.  
30-40- betlar
6. Hourani, Albert. A History of the Arab Peoples. Harvard University Press, 1991. 28-34-betlar.
7. Britannica.com — “Battle of Lepanto,” “Ottoman Empire.”  
<https://www.britannica.com>.
8. Efe Durmush, TÜRKİYE SELÇUKLULARI DEVRİNDE HAREZMLİ BİR TÜRK EMİRİ: HÜSAMEDDİN BAYCAR, Fırat Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, Fırat University Journal of Social Science, ELAZIĞ-2009.